

YUQORI SINFLARDA EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA IMKONIYATLARI

Sodiqov Jaxongir Toshpulat o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ORCID [https://orcid.org/ 0009-0002-5912-0050](https://orcid.org/0009-0002-5912-0050)

Annotatsiya. Maqolda ekologik ta'lim orqali tabiat –jamiyat-inson o'ratasidagi aloqalar va munosabatlardagi sezilarli pasayishlar va o'zgarishlar haqida,shuningdek Hozirgi kun muammolaridan biri bo'lib borayotgan befarqlik va iste'mol madaniyatsizlik oqibatida jamiyatda ijtimoiy munosabatlarda pasayish holatlarning oshib borishi,eskirgan metodlardan voz kechib bolalarda interfaol va noodatiy yondashuvlar zarurligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, Ekologik ta'lim, Fanlararo Integratsiya,kreativlik, ekologik ong, Modern texnologiyalar

PROSPECTS AND OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING ENVIRONMENTAL EDUCATION IN HIGHER GRADES

Sodiqov Jaxongir Toshpulat oglu

Teacher of the Shahrisabz State Pedagogical Institute

ORCID [https://orcid.org/ 0009-0002-5912-0050](https://orcid.org/0009-0002-5912-0050)

Annotation. The article talks about significant declines and changes in relations and relationships in the nature –society-human sphere through environmental education,as well as about the increasing indifference and decline in social

relations in society as a result of consumer unculturalism, the need for interactive and unusual approaches in children, abandoning outdated methods.

Keywords: Environment, Environmental Education, interdisciplinary integration, creativity, environmental awareness, Modern technologies

ПЕРСПЕКТИВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТАРШИХ КЛАССАХ

Садиков Джахонгир Тошпулат

Преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института

ОРЦИД <https://orcid.org/0009-0002-5912-0050>

Аннотация. В статье говорится о значительном ухудшении и изменениях в отношениях и взаимосвязях в сфере «природа — общество — человек» посредством экологического образования, а также о растущем безразличии и упадке социальных отношений в обществе в результате потребительского бескультурья, о необходимости интерактивных и необычных подходов к детям, отказе от устаревших методов.

Ключевые слова: окружающая среда, экологическое образование, междисциплинарная интеграция, творчество, экологическая осведомлённость, современные технологии

Kirish

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etmoqda. Zero niholni parvarish etilsa u albatta kelajakda o'z mevasini beradi.

Hozirgi davrda ekologik madaniyatni shakllantirish, ayniqsa, yosh avlod o'rtasida, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqori sinf o'quvchilarini ekologik madaniyatga tarbiyalash, ularda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, kelajakda atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekistonda ekologik ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda ekologik ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilingan. Masalan, 2019 yilda qabul qilingan "Ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirish to'g'risida"gi qarorda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhimligi ta'kidlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik madaniyatga tarbiyalashda pedagogik-metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvlarni qo'llash samarali natijalar beradi. Ekologik ta'limning mazmuni va usullarini takomillashtirishda milliy xususiyatlar va qadriyatlarni hisobga olish muhimdir. Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning bosqichlari, pedagogik-metodik yondashuvlar va ularning samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Maqsadimiz ekologik madaniyatni shakllantirishda samarali usullar va strategiyalarni ishlab chiqishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar ekologik ta'limning samaradorligini oshirish uchun turli pedagogik yondashuvlarni taklif etadi. Xususan, kreativ va ijodkorlik yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati

ta'kidlanadi. Masalan, B.Omonov, J.Sodiqov va S.Azamova o'zlarining tadqiqotlarida maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvlarni takomillashtirish texnologiyasini muhokama qilganlar. Shuningdek, ekologik ta'limning mazmuni va metodologiyasini rivojlantirishda fanlararo integratsiya muhim o'rin tutadi. Mavzuning ilmiy metodologiyasini yoritishda analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR . O'z maqolamda ekologik madaniyatni shakllantirishda ilmiy asoslangan yondashuvlarning ahamiyatini muhokama qildim. Yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi: 1. Kreativ Yondashuvlar: O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu yondashuv o'quvchilarning ekologik muammolarga ijodiy yechimlar topish qobiliyatini oshiradi. 2. Fanlararo Integratsiya: Ekologik ta'limni turli fanlar bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilarga ekologik tushunchalarni kengroq kontekstda taqdim etish. Bu yondashuv o'quvchilarning ekologik bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. 3. Ilmiy Asoslangan Yondashuvlar: Ekologik madaniyatni shakllantirishda ilmiy tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ekologik bilimlarini chuqurlashtirish. Bu yondashuv o'quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning samaradorligini oshirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Har bir yosh inson kelajakdagi millat taraqqiyotining asosiy peshqadami» degan fikrlari asosida, davlatimiz ta'lim sohasini modernizatsiya qilish va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan e'tirof etilgan.

Kelajak avlodga ekologik ta'lim sohasida olib boriladigan tadqiqotlar va amaliyotlar orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini yanada rivojlantirish

imkoniyatlari yana qayta o'rganib chiqilishi aytib o'tgandilar.¹ . Maqolada yuqori sinf o'quvchilarini ekologik madaniyatga tarbiyalashda kreativ yondashuvlar va fanlararo integratsiyaning muhim ahamiyatini ko'rsatdi. Ekologik ta'limni samarali tashkil qilish uchun o'quvchilarga ekologiya mavzusini yoqimli va qiziqarli shaklda yetkazish kerakligi ta'kidlandi. O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda ularning ijodiy va noodatiy usullardan foydalangan holda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, kreativ yondashuvlar, masalan, ekologiyani ilmiy-tadqiqotlar, video materiallar yoki ekologik masalalarga oid interaktiv o'yinlar orqali o'rganish, shuningdek dars samarali bo'lishi uchun o'quvchilar bilan hamkorlikda ochiq osmon ostida amaliy darslarni sonini ko'paytirish orqali ekologik savodxonlik bilimlarini oshirish mumkin. Yuqori sinflarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samaradorligi faqat pedagogik yondashuvlarga bog'liq emas, balki ta'limning mazmuni va usullarini milliy xususiyatlarga moslashtirishga ham bog'liq. O'zbekistonda ekologik ta'limni rivojlantirishda milliy qadriyatlar va an'analarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Shular orasida milliy tabiatni himoya qilishga alohida e'tibor qaratish, an'anaviy xo'jalik ishlariga yo'naltirilgan ekologik madaniyatni shakllantirish muhimdir. Maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyatini ko'rsatdi. Fanlararo integratsiya ekologik bilimlarni turli fanlar orqali kengaytirish va teranlashtirish imkonini beradi. Ma'lumki, ekologik ta'lim tabiat, geografiya, biologiya, astranomiya va fizika kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq. Bu fanlar orasida o'quvchilarni ekologik masalalarga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun fanlararo integratsiya orqali samarali ta'lim berish mumkin. Kreativ yondashuvlarning samaradorligi ham tadqiqotda kuzatilgan. Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilarda ekologiyaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda o'qitishning turli usullari samarali bo'lib chiqdi. Masalan, ekologik g'oyalarni o'rganish va o'qitishning interaktiv shakllari, shu jumladan, ekologiya muammolariga oid onlayn musobaqalar va guruh ishlari, o'quvchilarda amaliy

ko'nikmalarni va ekologik xavf-xatarlarga nisbatan hamjihatlikni oshirishga xizmat qilgan. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham samarali bo'lishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarga ekologik taqdimotlar, multimedia materiallari va simulyatsiyalarni taqdim etish ekologik bilimlarni yangilash va kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, axborot texnologiyalarini ta'limda qo'llash orasida ekologik ma'rifatni oshirishga bo'lgan yo'nalishlarni kengaytirishga imkoniyat yaratishi mumkin. Maqolaning ikkinchi muhim natijasi ekologik madaniyatning shakllanish bosqichlari bo'yicha aniq tasavvurlar bilan ta'minlanganligidir. Tashkil etilgan tadqiqotlar asosida, ekologik madaniyatning shakllanish bosqichlari bir qator fazaga bo'linish mumkin: 1) o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirish, 2) ekologik munosabatlarning shakllanishi va 3) ekologik xulq-atvorning qo'llanilishi. Bu bosqichlar asosida pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish talab etiladi, ular asosida ekologik madaniyatni aniq va tizimli shakllantirish mumkin.

Ma'lumki, yoshlarga ekologik bilimlarni to'g'ri va aniq yetkazish, ayniqsa, yuqori sinfda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ekologik faoliyatga yo'naltirilgan to'g'ri ta'limni tashkil qilish orqali, har bir o'quvchi o'zini tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni xis qilishi mumkin.

MUXOKAMA .Yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvlarni qo'llashning samaradorligi yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotlar asosida, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvlarni qo'llash, ekologik ta'limning mazmuni va usullarini milliy xususiyatlar va qadriyatlarga moslashtirish muhimdir. Bu yondashuvlar orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, ekologik madaniyatni shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham samarali bo'lishi mumkin. Modern texnologiyalar orqali o'quvchilarga ekologik taqdimotlar, multimedia materiallari va simulyatsiyalarni taqdim etish ekologik bilimlarni

yangilash va kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Oilada ekologik qadriyatlarni targ'ib qilish, tabiatni himoya qilishga oid tadbirlarda ishtirok etish, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, ularni ekologik muammolarni hal qilishga jalb qilish muhimdir. Bu orqali o'quvchilarda ekologik mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkin. Natijada, yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvlar, milliy xususiyatlar va qadriyatlarni hisobga olish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, ekologik madaniyatning shakllanish bosqichlarini aniq belgilash, oila va jamiyatning o'rne, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning samaradorligini oshirish mumkin.

XULOSA. Ekologik ta'lim bu ma'lum bir tashkilot yoki hudud kesimida o'rgatilishi va tatbiq etilishi kerak bo'lgan jarayondan hozirgi kunda global miqyosda har bir kishilik jamiyati va davlatlar o'rtasida muhokimaga aylanib borayotgan va yechimini kutayotgan holatga kelib qoldi. Tadqiqotda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirish uchun kognitiv va ijodiy yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarga ekologik muammolarni tushuntirish, ekologik ta'limni turli interaktiv usullar orqali yetkazishning zarurligi haqida fikrlar ilgari surildi. Boshqa tomondan, ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishning ahamiyati ta'kidlandi. Bu jarayonda ekologik bilimlarni o'qitishning samarali metodikasi va pedagogik texnologiyalarni joriy qilish hamda milliy va xalqaro tajribalarni inobatga olish o'quvchilarda ekologik savodxonlikni oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Ekologik madaniyatni shakllantirishning turli bosqichlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniq belgilash orqali ekologik ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. O'quvchilarni tabiatni himoya qilishga chaqirish va ularda ekologik mas'uliyatni shakllantirish, ekologik ta'limni samarali tashkil etishda ustuvor vazifalardan bo'lishi kerak. Shuningdek, tadqiqotda ekologik

madaniyatni shakllantirishda ahamiyatli bo'lgan metodologik yondashuvlar, fanlararo integratsiyani tashkil etish, o'quvchilarni ekologik faollik va innovatsion ishlarga jalb qilishning muhimligi ko'rsatilgan. Fikrimizcha, ekologik madaniyatni shakllantirishda shu kabi kompleks yondashuvlar amalga oshirilsa, nafaqat o'quvchilarda ekologik mas'uliyat hissi kuchayadi, balki ularning ijtimoiy faolligi va atrof-muhitga bo'lgan munosabati sezilarli darajada yaxshilanadi. Tadqiqotning kelajakdagi rivojlanishi ekologik ta'limning har tomonlama mukammallashishi va innovatsion metodlarning samarali joriy qilinishiga qaratilgan bo'ladi. Ekologik madaniyatni shakllantirishni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam pedagogik tizimlar va dolzarb metodlarni ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob avlodlar bilan quramiz" . Toshkent: "O'zbekiston"
2. Jaxongir Sodiqov Toshpulat o'g'li : “ YANGI O'ZBEKISTONDA TABIAT VA INSON O'RTASIDA MUVOZANAT QAYTA TIKLAMISHI”:Educational Research in Universal Sciences.30.01.(2024) ISSN:2181-3515 447-451
3. Jaxongir Sodiqov Toshpulat o'g'li :“ **IJTIMOIIY-EKOLOGIK TUSHKUNLIK YOHUD BIZ AVLODLARGA QOLDIRAYOTGAN AYANCHLI MEROS**” : ***JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS.12.10.(2024) 62-SONLI NASHR 45-50.***
4. Karimov I. (2020). Zamonaviy ta'lim va raqamli texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
5. Xalq so'zi gazetasi. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning kitobxonlikni rivojlantirishga doir chiqishlari, 2022
6. www.xs.uz – “Kitob haqida buyuklar nima deydi?” maqolasi

ИТ ИСТОЧНИКОВ.